

**OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARINING  
KASBIY TAYYORGARLIGINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Tadqiqotchi: Teshaboyev Ulug'bek Inhamiddinovich*

*Tel. +998 98 888 57-78*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lif muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. "Harbiy ta'lif" va "kasbiy tayyorgarlik" tushunchalarining mohiyati ohib berilgan, kursantlarning kasbiy tayyorgarligining nazariy, amaliy, psixologik-axloqiy, jismoniy va intellektual komponentlari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy harbiy ta'lif, kursantlar, kasbiy tayyorgarlik, harbiy kadrlar, vatanparvarlik tarbiyasi, kasbiy kompetentsiyalar.

**Аннотация:** В данной статье анализируются особенности профессиональной подготовки курсантов высших военных учебных заведений Республики Узбекистан. Раскрыта сущность понятий "военное образование" и "профессиональная подготовка", исследованы теоретический, практический, психолого-нравственный, физический и интеллектуальный компоненты профессиональной подготовки курсантов.

**Ключевые слова:** высшее военное образование, курсанты, профессиональная подготовка, военные кадры, патриотическое воспитание, профессиональные компетенции.

**Annotation:** This article analyzes the specific features of professional training of cadets in higher military educational institutions of the Republic of Uzbekistan. The essence of the concepts of "military education" and "professional training" is revealed, and the theoretical, practical, psychological-moral, physical, and intellectual components of cadets' professional training are examined.

**Keywords:** higher military education, cadets, professional training, military personnel, patriotic education, professional competencies.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, milliy xavfsizligini ta'minlash va xalqaro maydonda mamlakatimiz mavqeini yanada oshirish uchun yuqori malakali harbiy mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masalaga aylandi. Oliy harbiy ta'lif muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligi mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining jangovar qobiliyatini belgilaydigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Ma'naviy jihatdan yetuk, vatanparvar harbiy mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy tayyorgarligi jarayonida nafaqat zamonaviy harbiy bilim va ko'nikmalarni, balki milliy qadriyatlar va an'analarni ham singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy harbiy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ko‘p qirrali bo‘lib, ular harbiy kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish, zamonaviy moddiy-texnik bazani yaratish, harbiy mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish, xalqaro harbiy hamkorlikni mustahkamlash va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev “Harbiylar xalqimizning ma’naviy yetuk farzandlari bo‘lishi kerak. Buning uchun shaxsiy tarkibning ma’naviy yetukligini, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini yuksaltirish lozim. Siz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimiz vorislari ekanligingizni doim his qilib, shunga munosib xizmat qilsangiz, yoshlarimiz vatanparvarlik, ona yurtga sadoqat tuyg‘ularini sizlardan o‘rganadi”<sup>[1]</sup> – deb ta’kidlagan. Davlatimiz rahbarining yuqoridagi fikrlari kursantlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirish jarayonlari nafaqat harbiy-professional bilimlarni, balki boy ma’naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz va buyuk ajdodlarimiz an’analarini chuqur o‘rganish orqali ma’naviy yetuk, vatanparvar, o‘z xalqiga va Vataniga sodiq harbiy mutaxassislarni tayyorlashda muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda harbiy ta’lim tizimida yaratilayotgan sharoitlar, zamonaviy o‘zgarishlar barcha imkoniyatlardan foydalana oladigan, o‘z kasbini ustasi bo‘lgan, harbiy sohani chuqur o‘zlashtirgan mahoratli harbiy-pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda.

Shu o‘rinda dastlab “harbiy ta’lim” tushunchasiga to‘xtalsak. Mahalliy olimlardan X.X. Xasanboyev o‘z tadqiqotlarida harbiy ta’limga quyidagicha ta’rif bergan “harbiy ta’lim” – Qurolli Kuchlarning turli bo‘g‘inlari, harbiy qismlar va maxsus kuchlar uchun kadrlar tayyorlash tizimi hisoblanib, ushbu termin ofitser va boshqa harbiy xizmatchilarning amaliy faoliyatida zarur bo‘lgan fundamental va maxsus harbiy fanlar bo‘yicha tizimlashtirilgan bilimlar va ko‘nikmalar yig‘indisini anglatadi”<sup>[2]</sup> – deb izohlagan.

Rus olimlaridan G.A. Andreyeva, G.S. Vyalikov, I.A. Tyutkovlar “Harbiy ta’lim tushunchasi asosiy va maxsus harbiy fanlar bo‘yicha tizimli bilimlar hamda ofitserlar va boshqa harbiy xizmatchilar uchun amaliy faoliyat uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar majmuasi sifatida tushuniladi. Harbiy ta’limning paydo bo‘lishi va rivojlanishi harbiy fan va harbiy san’atning rivojlanishi bilan chambarchas

<sup>1</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/2945>

<sup>2</sup>Xasanboyev X.X. “Mudofaa sohasida harbiy pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish omillari: avtoreferat.dis.pedogika fanlari (PhD): - Ch., 2023. – 42 bet.

bog‘liq”<sup>[3]</sup> – deb ta’kidlashgan.

Yuqoridagi olimlarning qarashlarini tahlil qilgan holda, fikrimizcha harbiy ta’lim – bu oddiy ta’lim jarayonidan farq qiladigan murakkab tizim bo‘lib, u nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarini ham qamrab oladi. Zamonaviy sharoitda harbiy ta’lim tizimi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnik va harbiy sohadagi barcha o‘zgarishlarni hisobga olgan holda doimiy takomillashib borishini talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham harbiy ta’lim tizimi o‘ziga xos uzoq tarixga ega bo‘lib, mustaqillik yillarda yanada rivojlandi va takomillashdi.

Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligi tushunchasini aniqlashtirish uchun avvalo “tayyorgarlik” va “kasbiy tayyorgarlik” tushunchalarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ma’lumki, “tayyorgarlik” so‘zi tayyorlamoq (tayyorlanmoq) so‘zidan kelib chiqqan va biror kishi tomonidan kelgusi maxsus faoliyat uchun olingan bilimlar zaxirasini anglatadi. “Tayyorgarlik” “tayyorlik” bilan chambarchas bog‘liq – bu o‘qitilish darajasi, biror narsaga tayyorlikni bildiradi<sup>[4]</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik bugungi kunda bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy doktrinasi, strategiyasi va taktikasidagi o‘zgarishlar harbiy ta’lim tizimida ham aks etadi. Zamonaviy harbiy konfliktlar, terrorizmga qarshi kurash strategiyalari va harbiy texnologiyalarning rivojlanishi kursantlarga innovatsion bilimlarni berish zarurligini belgilaydi. Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligi xavfsizlikni ta’minalash sohasidagi hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda muntazam ravishda yangilanib bormoqda.

Ikkinchidan, oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligi ikki muhim va o‘zaro bog‘liq maqsadga ega: bo‘linmalarda ofitserlik lavozimlariga kursantlarni kasbiy tayyorlash va har qanday vaziyatda o‘z funksional majburiyatlarini samarali bajarishga qodir bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash<sup>[5]</sup>. Bu maqsadlar nafaqat harbiy bilim va ko‘nikmalarini, balki boshqaruv, psixologik tayyorgarlik, axloqiy tarbiya va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini ham shakllantirish zarurligini belgilaydi.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalari

<sup>3</sup>Андреева Г.А., Вяликова Г.С., Тютькова И.А. Краткий педагогический словарь: Учебное справочное пособие / под ред. – М.: 2005. – 181 с.

<sup>4</sup>Бельский А. Н. Повышение эффективности военно-профессиональной подготовки курсантов вузов: дис. канд. пед. наук. М., 2010.

<sup>5</sup>Козлов В.А., Мошкин А.А.. “Военно-профессиональная подготовка курсантов факультета сил специального назначения: нравственные аспекты” Профессиональное образование в России и за рубежом, no. 2 (38), 2020, p. 83-87.

kursantlarining kasbiy tayyorgarligiga xos bo‘lgan yana bir xususiyat - bu milliy an’ana va qadriyatlarga asoslangan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, zamonaviy harbiy-siyosiy vaziyat va davlat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash talablari bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilishidir.

Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligi milliy qadriyatlarga va xalqaro tajribaga asoslangan holda, bugungi kun talablariga javob beradigan ta’lim metodologiyasini o‘z ichiga oladi. Bu davr talablariga mos ravishda harbiy kadrlarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini isloh qilish doirasida, oliy harbiy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoni mukammal tizimli yondashuvni talab qiladi. Bu yondashuv quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- tashkiliy komponent;
- nazariy-metodologik komponent;
- texnologik komponent;
- psixologik-pedagogik komponent;
- moddiy-texnik ta’midot.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida kursantlar harbiy-kasbiy, umummadaniy va shaxsiy sifatlarni shakllantiradigan qator kompetentsiyalarni o‘zlashtiradilar. Bu kompetentsiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ✓ harbiy xizmatda asosiy vazifalarni bajarish qobiliyati;
- ✓ jangovar vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalari;
- ✓ zamonaviy harbiy texnologiyalar va qurol-aslahalardan samarali foydalanish malakasi;
- ✓ jamoada ishslash va rahbarlik qilish qobiliyati;
- ✓ axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari;
- ✓ kommunikativ va lingvistik qobiliyatlar;
- ✓ o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish ko‘nikmalari.

Mamlakatimizdagi oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligining yana bir muhim jihat shundaki, u milliy va xalqaro tajribani uyg‘unlashtirgan holda amalga oshiriladi. Milliy an’analarni saqlab qolgan holda, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirishga katta e’tibor qaratiladi. Bu xalqaro hamkorlik doirasida kadrlar almashinushi, qo‘shma o‘quv mashg‘ulotlari, xalqaro harbiy o‘quv yurtlari bilan aloqalarni mustahkamlash va hamkorlikda o‘quv dasturlarini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida pedagogik yo‘nalish alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak ofitserlar nafaqat harbiy ishlarni bilishlari, balki pedagogik mahoratga ham ega bo‘lishlari, ya’ni bilimlarni uzatish, qo‘l ostidagilarni o‘qitish va tarbiyalash usullarini egallashlari zarur. Bu jihat O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining kadrlar

tayyorlash tizimida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligi tizimi quyidagi tarkibiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Nazariy komponent – bu harbiy ish asoslarini o‘rganish, harbiy fan va san’at, milliy va xalqaro harbiy tajribani o‘rganish jarayoni. Bu komponent zamonaviy harbiy nazariya, taktika, strategiya, harbiy psixologiya va pedagogika, qurol-aslaha va harbiy texnika, harbiy tarix va boshqa nazariy bilimlarni qamrab oladi.

Amaliy komponent – nazariy bilimlarni amaliyatda qo‘llash, harbiy mashqlar, dala o‘quv mashg‘ulotlari, jangovar o‘q otish mashqlari, taktik o‘yinlar, harbiy texnika va qurol-aslahalarni o‘rganish va ularda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish. Bu komponent real jangovar vaziyatlarga yaqinlashtirilgan sharoitlarda kasbiy ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Psixologik-axloqiy komponent – harbiy xizmatning psixologik jihatlarini o‘rganish, stress holatlarida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, jangovar ruhni tarbiyalash, vatanparvarlik, o‘zaro yordam va boshqa axloqiy sifatlarni rivojlantirish. Bu komponent bo‘lajak ofitserlarda jangovar vaziyatlarda emotsional barqarorlikni shakllantirish, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va axloqiy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan.

Jismoniy tayyorgarlik – harbiy xizmat uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirish, kuch, chidamlilik, tezkorlik, epchillik va boshqa sifatlarni takomillashtirish. O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tayyorgarlikka katta e’tibor qaratiladi, chunki bo‘lajak ofitser nafaqat harbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki yuksak jismoniy tayyorgarlikka ham ega bo‘lishi kerak.

Intellektual komponent – mantiqiy va tanqidiy fikrlash, taktik vaziyatlarni tahlil qilish va optimal qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish. Zamonaviy harbiy harakatlar sharoitida ofitser tez va samarali qarorlar qabul qilishi, murakkab vaziyatlarni tahlil qilishi va strategik rejalar ishlab chiqishi kerak. Shuning uchun, O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi.

Kursantlarning kasbiy tayyorgarligi professor-o‘qituvchilar tarkibining yuqori kasbiy mahoratisiz mumkin emas. Bu yerda, ayniqsa, zarur ta’lim texnologiyalari, usullari, o‘qitish va tarbiyalash usullariga egalik qilishga e’tibor qaratiladi, bu pedagogik faoliyat sub’ektiga psixologik-pedagogik va metodik bilimlardan ongli foydalanish asosida aniq kasbiy-pedagogik vazifalarni hal qilgan holda kursantlarning pedagogik yo‘nalganligini va pedagogik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga imkon beradi. Bunda nafaqat o‘qitish jarayonida nazariy va metodik bilimlarni ijodiy qo‘llashga, balki bo‘lajak ofitserning shaxsiy fazilatlarga ham yuqori talablar qo‘yiladi.

Shuningdek, kursantlarning kasbiy pedagogik madaniyatini oshirish ham

muhimdir. Professor R. Maxmudov ta'kidlaganidek "...xodimlarning pedagogik madaniyatini shakllantirish – huquqiy normalarga nisbatan hurmat, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish bilan bog'liq ijtimoiy foydali omildir"<sup>[6]</sup> – deb izohlagan.

Oliy harbiy ta'lif muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligi uzliksiz va tizimli jarayondir. Bu jarayon kursantlarni harbiy oliy ta'lif muassasasiga qabul qilishdan boshlab to bitirgunga qadar davom etadi. Kasbiy tayyorgarlik mazmuni va metodlari doimiy ravishda takomillashtiriladi va yangilanadi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion o'qitish usullari joriy etiladi.

Harbiy oliy ta'lif muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida tashkil etiladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda kursantlarda vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, vatanga sodiqlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, halollik, jamoada ishlash ko'nikmalari, mas'uliyat, adolat kabi shaxsiy va kasbiy sifatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lif muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar milliy va ma'naviy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion pedagogik metodlar va xalqaro hamkorlik kabi omillar bilan belgilanadi. Kursantlarning kasbiy tayyorgarligining asosiy maqsadi – zamonaviy talablarga javob beradigan, yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan, vatanparvar, ma'naviy yetuk, intellektual salohiyatli va jismoniy barkamol ofitserlarni tayyorlashdan iborat.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagilarni oliy harbiy ta'lif muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligining samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

Birinchidan, harbiy ta'lilda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion o'qitish usullarini keng joriy etish. Bu kursantlarning bilim olish samaradorligini oshiradi va ularda zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ikkinchidan, Xalqaro harbiy hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'r ganish va joriy etish. Xalqaro harbiy mashqlar, konferensiylar, seminarlar va kursantlar almashinuvini tashkil etish orqali kursantlarning bilim va ko'nikmalarini xalqaro darajaga ko'tarish.

Uchinchidan, kursantlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish. Bu bo'lajak ofitserlarning vatanparvarlik, fidoyilik, jasorat kabi sifatlarini rivojlantiradi.

---

<sup>6</sup>Maxmudov R. Kasbiy pedagogika:Darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2003-y – B.72

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligi ko‘p qirrali jarayondir. Bu jarayon davlat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi. Harbiy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xalqaro harbiy hamkorlikni kuchaytirish, kursatlarda milliy qadriyatlarni shakllantirish orqali zamonaviy talablarga javob beradigan, yuqori kasbiy mahoratga ega, vatanparvar, ma’naviy yetuk harbiy kadrlarni tayyorlash mumkin. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa qibiliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Sh. Mirziyoyev “Harbiy xizmatchilar xalqimizning ma’naviy yetuk farzandlari bo‘lishi kerak”// 17.10.2019-yil. <https://president.uz/oz/lists/view/2945>
2. Xasanboyev X.X. “Mudofaa sohasida harbiy pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish omillari: avtoreferat.dis.pedagika fanlari (PhD): - Ch., 2023. – 42 bet.
3. Андреева Г.А., Вяликова Г.С., Тютькова И.А. Краткий педагогический словарь: Учебное справочное пособие / под ред. – М.: 2005. – 181 с.
4. Бельский А. Н. Повышение эффективности военно-профессиональной подготовки курсантов вузов: дис. канд. пед. наук. М., 2010.
5. Козлов В.А., Мошкин А.А.. “Военно-профессиональная подготовка курсантов факультета сил специального назначения: нравственные аспекты” Профессиональное образование в России и за рубежом, no. 2 (38), 2020, p. 83-87.
6. Maxmudov R. Kasbiy pedagogika:Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IV akademiyasi, 2003-y – B.72